



MUSIQA MADANIYATI DARSLARIDA MUSIQA SAVODXONLIGI FAOLIYATINING O‘RNI

Islom Axtamov

Buxoro davlat universiteti musiqa ijrochiligi va madaniyat kafedrası o‘qituvchisi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada musiqa madaniyati darslarida musiqa savodxonligi faoliyatining o‘rni, musiqa tinglash, jo‘r bo‘lib kuylash kabi faoliyatlar bilan bog‘liqligi va yosh avlod tarbiyasida musiqa san‘atining alohida ahamiyati borligi tahlil qilingan.*

Kalit so‘zlar: *musiqa savodxonligi, musiqa san‘ati, musiqa tinglash, musiqiy ta‘lim, estetik tarbiya, musiqiy tarbiya.*

Musiqa inson his-tuyg‘ularini tovushlar vositasida ifodalovchi san‘at turlaridan biridir. Musiqa san‘ati insonning estetik didini shakllantiruvchi hamda madaniy saviyasini oshiruvchi mo‘jizaviy vositadir. Musiqa bu – estetik tarbiyaning eng faol turi hisoblanadi. Bola tug‘ilgandan beshikda ilk bor ona allasini tinglaydi. Ona allasida vatanga muhabbat, ona yurtiga sadoqat kabi yuksak insoniy tuyg‘ular mujassamdir. Musiqa ta‘limi va tarbiyasi o‘quvchi yoshlarni komil inson qilib tarbiyalashda muhim o‘rin tutadi.

Mustaqillik davrida mamlakatimizda ko‘p sohalar qatori musiqa ta‘limi va tarbiyasiga ham katta e‘tibor berilib, ushbu sohada anchagina ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, Muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan 02.02.2022 yildagi PQ-112-son “Madaniyat va san‘at sohasini yanada rivojlantirishga doir qo‘shimcha chora- tadbirlar to‘g‘risidagi” qarori imzolandi. [1] Mazkur qarorga ko‘ra, umumiy o‘rta ta‘lim muassasalarida o‘quvchilarga milliy musiqa cholg‘ularidan kamida bittasini chala olish mahorati o‘rgatiladi hamda bu haqda ularning ta‘lim to‘g‘risidagi hujjatlari (shahodatnoma)ga tegishli qayd kiritiladi. Musiqa madaniyati fani o‘qituvchilari esa milliy cholg‘ulardan kamida bittasini, 2023-2024-o‘quv yilidan boshlab esa kamida uchtasini chala olish mahoratiga ega bo‘lishi majburiy hisoblanadi. Ularga asosiy ish joyida ish haqini saqlab qolgan holda, musiqa fanidan dars o‘tish va to‘garak mashg‘ulotlarini olib borishga ruxsat beriladi. Musiqa madaniyati darslarida “Hayotimga hamrohdir cholg‘u” shiori ostida “cholg‘u ijrochiligi” mashg‘ulotlari yo‘lga qo‘yiladi. Maktablarni notalar to‘plamlari va maxsus musiqiy adabiyotlar bilan ta‘minlashga alohida e‘tibor qaratiladi.

Hamma bolalar maktabda o‘qishlarini nazarda tutib, umumta‘lim maktabining 1-7 sinflarida musiqa madaniyati darsi kiritilgan. Musiqa madaniyati darsi musiqa tinglash, jo‘r bo‘lib kuylash va musiqa savodxonligi kabi asosiy faoliyat turlaridan iborat. Musiqa madaniyati darslarining mustaqillik davrida tuzilgan yangi dasturi, darsliklari va bularning yaratilishiga asos bo‘lgan DTS bilan tanishar ekanmiz, darslarda musiqa savodxonligiga ajratilgan o‘rinni aniqlaymiz. Ayrim o‘qituvchilar bu faoliyatni o‘zlashtirish qiyin, uning musiqachi mutaxassis bo‘lmaydigan aksariyat o‘quvchilarga keragi yo‘q deb hisoblaydilar.

Bu xato fikr, albatta. Bola harflarni o‘rganib olganidan keyingina o‘zi mustaqil tarzda shu harflar vositasida kitobdan o‘qiydi. Musiqa ham xuddi shunday, notalarni o‘rganib olganidan keyin ayrim oddiy kuy yoki qo‘shiqlarni notadan o‘qib o‘rganishi yoki kuylashi mumkin. Musiqaning



elementar, eng zarur belgilarini o'rganmay turib, musiqa asarini o'rganish va kuylash yoki cholg'u asbobida chalish mumkin emas.

Oddiydan murakkabga tamoyili asosida darsliklarda musiqa savodini o'rganish uchun materiallar berilgan. Ushbu materiallarda musiqaning elementar nazariyasiga oid nota yozuvi, tovush cho'zimplari, pauzalar, dinamik belgilar, alteratsiya belgilari, intervallar haqidagi ma'lumotlar ayrim darsliklarda takrorlanishi kuzatiladi. Masalan 2-sinf musiqa darsligining [2] 9- betida "Qanday tovushlarni bilasiz?" mavzusida ko'rgazmali rasmlar orqali shovqinli va musiqiy tovushlarning farqi ko'rsatilgan. Ammo musiqiy tovushlar qatoriga "violonchel" cholg'usi bilan bir qatorda "doyra" cholg'usi ham kiritilgan. Bundan tashqari 3 – va 4 – sinflarda bu mavzuga oid hech qanday ma'lumot berilmasdan, 5 - sinf musiqa darsligining [3] 8- betida "Musiqiy tovushlarning yaratilishi" mavzusida ma'lumotlar berilgan. Bunday holatlarning uchrashi maktab musiqa darsliklarini sohaning yetakchi mutaxasislari ishtirokida qayta ko'rib chiqish hamda kerakli tavsiya va takliflarni ishlab chiqishni talab etadi.

Musiqa savodi faoliyatini darsning boshqa, musiqa tinglash, jo'r bo'lib kuylash kabi faoliyatlardan alohida holda o'rganish yetarlicha samara bermasligi mumkin. Ushbu faoliyatlarni bir – biri bilan bog'lab, tizimli ravishda darsni tashkil etish musiqa madaniyati fani o'qituvchisidan kerakli bilim, ko'nikma va malakalar kompleksining mujassam bo'lishini talab etadi. Musiqa madaniyati fani o'qituvchilarini tayyorlovchi oliy musiqiy ta'limda musiqaning elementar nazariyasi, solfedjio, musiqa o'qitish metodikasi, musiqa tarixi kabi nazariy va amaliy fanlarning o'qitilish darajasi bo'lajak pedagog kadrlarning kasbiy tayyorgarligini belgilovchi muhim omillardan biri hisoblanadi.

Cholg'u asbobida chalish, vokal asarlarni kuylash, musiqiy – nazariy bilimlarga ega bo'lish kabi ko'nikma va malakalar musiqa madaniyati fani o'qituvchisiga qo'yiladigan asosiy me'yoriy talablar hisoblanadi. Ushbu me'yoriy talablarning bajarilishi oliy musiqiy ta'lim tizimida cholg'u ijrochiligi, vokal va zamonaviy musiqa, dirijyorlik kabi mutaxassislik fanlarini yakka tartibda o'qitilishini talab etadi. Hozirgi kunda musiqa ta'limi yo'nalishida ta'lim olayotgan talabalarga cholg'u ijrochiligi, vokal va zamonaviy musiqa, dirijyorlik kabi mutaxassislik fanlarini guruh yoki kichik guruhlarga bo'lingan tarzda o'tilishi bakalavrga qo'yiladigan me'yoriy talablarning bajarilishini birmuncha qiyinlashtiradi. Musiqa o'qituvchisining kasbiy hamda pedagogik mahorati o'quvchilarni fanga bo'lgan qiziqishlarini orttirish va ularda musiqiy – estetik tasavvurni hosil qilishda muhim omillardan biri ekanligini nazarda tutib, oliy musiqiy ta'lim tizimida yakka (individual) darslarni imkon qadar tashkil etish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, musiqa savodxonligi faoliyati musiqiy faoliyatlar orasida alohida ahamiyatga ega bo'lib, ushbu faoliyatni to'g'ri va samarali tashkil etish uchun musiqa madaniyati fani dasturi, darsliklar, musiqa o'qituvchisining kasbiy tayyorgarligi, o'qituvchilar uchun metodik qo'llanmalarining mavjudligi kabi bir qator omillar ta'sir etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Madaniyat va san'at sohasini yanada rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida" gi PQ- 112-sonli qarori. www.lex.uz
2. H.Nurmatov, N.Norxo'jayev "Musiq" umumiy o'rta ta'lim maktablarining 2- sinfi uchun darslik., Toshkent 2018.
3. A.Mansurov, D.Karimova "Musiq" umumiy o'rta ta'lim maktablarining 5- sinfi uchun darslik., Toshkent 2020.
4. ИИЎ Ахтамов "Музыка маданияти дарсларида халқ музикасининг ўрни" Science and



Education 3 (1) 2022-01-18

5. I. Axtamov “Мақtab musiqa madaniyati darslarida maqom namunalarini o'rgatishni metodik takomillashtirish tajribalaridan” ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz) 2022/6/30
6. ИА Кушаев, ИИУ Ахтамов “ПРОБЛЕМЫ ИНДИВИДУАЛЬНЫХ МУЗЫКАЛЬНЫХ ЗАНЯТИЙ В ВУЗАХ УЗБЕКИСТАНА” Academy 3(66) 2021
7. Umrzoqovna N. S. FARG ‘ONA-TOSHKENT MAQOM YO ‘LLARI HAQIDA //Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS). – 2022. – №. Special issue. – С. 72-77.
8. Ражабов А. Ш. МУЗЫКАЛЬНЫЙ ПРОФИЛЬ И ТЯЖЕСТЬ В КОМПОЗИЦИИ ПРИНЦИП НЕОПРЕДЕЛЕННОСТИ МУЗЫКАЛЬНОГО МАТЕРИАЛА ИЛИ ФОРМЫ //Scientific progress. – 2021. – Т. 2. – №. 4. – С. 607-612.
9. Рахматова М. О. Холикова М. Б. МЕХАНИЗМ РАЗВИТИЯ МУЗЫКАЛЬНЫХ СПОСОБНОСТЕЙ УЧАЩИХСЯ МУЗЫКАЛЬНЫХ И ХУДОЖЕСТВЕННЫХ ШКОЛ //Academy. – 2021. – №. 3 (66). – С. 63-65.
10. Hasanov H. R. Ansambl ijrochiligi faoliyating tarixi va taraqqiyot bosqichlari //Scientific progress. – 2021. – Т. 1. – №. 6. – С. 650-655.
11. Akhtamovich K. I. THE CONTENT OF EDUCATION AIMED AT METHODOLOGICAL IMPROVEMENT OF THE STUDY OF TRADITIONAL MUSICAL HERITAGE //Academicia Globe: Inderscience Research. – 2022. – Т. 3. – №. 01. – С. 13-15.
12. Мустафаев Б. Restoration of the System of Music Education in Uzbekistan in 1920 1940 Years //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2022. – Т. 23. – №. 23.
13. Миршаев У. О’ЗБЕК ХАЛҚ ШОЛГ’УЛАРИНИНГ ШАКЛЛАНИШ ТАРИХИ ВА ШАРҚ МУСИҚАШУНОС ОЛИМЛАРИНИНГ ШОЛГ’У ИЖРОЧИЛИГИ SAN’ATIGA OID ILMIY MEROSI //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2021. – Т. 3. – №. 3.
14. Rajabov T. I. The Mechanism of Teaching Uzbek Musical Folklore //Procedia of Philosophical and Pedagogical Sciences ISSN. – Т. 2795. – №. 546X. – С. 1.
15. Karimov O. J. I. Tanbur sozining paydo bo ‘lishi va milliy cholg ‘u ijrochiligidagi o ‘rni //Scientific progress. – 2021. – Т. 1. – №. 5. – С. 767-771.
16. Ruziev D. Y. The Emergence of New Forms of Musical Ensembles in Uzbekistan //EUROPEAN Journal of innovation in nonformal education. – 2022. – Т. 2. – №. 1. – С. 343-346.
17. Ибодов У. Р. Инструментальная музыка как орудие психологического влияния на человека. //Актуальные вопросы психологии, педагогики, философии XXI века. – 2020. – С. 244-248.
18. Камолов Ш. Х. СУДЕБНАЯ ВЛАСТЬ КАК ГАРАНТ ЗАЩИТЫ ПРАВ И СВОБОД ЧЕЛОВЕКА И ГРАЖДАНИНА //Наука и инновация. – 2015. – №. 2. – С. 89-92.
19. Мадримов Б. (2021). Воздействие узбекского национального певческого искусства и жанра эстрады на сознание современной молодежи. Наука, техника и образование. №2-1 (77), С. 55-58.
20. Ахтамов И. И. Ў. Мақом анъанавий касбий мусиқа намуналарини ўрганишда овоз хусусиятлари //Scientific progress. – 2021. – Т. 1. – №. 5. – С. 648-653.



21. Ramazonova U. X., Esanova M. J. An'anaviy xonandalik rivojida maqomlarning o'rni //Science and Education. – 2022. – T. 3. – №. 1. – С. 496-501.
22. Urinov S. K., Rakhmatova M. THE ROLE OF CULTURE AND ART OF UZBEKISTAN ON A GLOBAL SCALE //Web of Scientist: International Scientific Research Journal. – 2022. – T. 3. – №. 4. – С. 370-376.
23. Нуруллаев Ф. Г. Содержание обучения бухарским народным песням в музыкальном образовании //Academy. – 2021. – №. 3 (66). – С. 48-50.
24. Ibodovich T. R. PRACTICAL SITUATION OF TEACHING UZBEK MUSICAL FOLKLORE IN THE CONTINUOUS EDUCATION SYSTEM //International Journal of Early Childhood Special Education (INT-JECSE) DOI. – T. 10. – С. 708-716.
25. Rajabov T. I. Pedagogicheskie vozmojnosti ispolzovaniya detskix folklornyx pesen v duchovno-nravstvennom vospitanii mladshix shkolnikov //Vestnik nauki i obrazovaniya. – С. 5-2.
26. Rajabov T. I. The Mechanism of Teaching Uzbek Musical Folklore //Volume-1| Issue-1 Available online@ <https://procedia.online/index.php/philosophy>//Procedia of Philosophical and Pedagogical Sciences ISSN.
27. Раджабов Т.И. УЗЛУКСИЗ ТАЛИМДА ФОЛЬКЛОР КО'ШИКЛАРИНИ ЙДЖРО ЭТИШИХГ О'ЗИГА ХОС УСЛУБЛАРИ //Научный прогресс. – 2021. – Т. 1. – №. 5. – С. 581-585.
28. Мадримов Б.К., Раджабов Т.И. Узбекский обрядовый фольклор и его особенности //Нексус: Журнал достижений инженерной науки. – 2022. – Т. 1. – №. 4. – С. 53-56.
29. Ражабов, Тухтасин. "Madaniyat va san'at muassasalarini faoliyatini tashkil etishning huquqiy asoslari." *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.uz)* 8.8 (2021).
30. Rajabov, T. X. I., & Ibodov, O. R. (2021). O'zbek Xalq Musiqa Merosda O'quvchilarni Vatanparvalik Ruhida Tarbiyalash Vositasi. *Ижтимоий Фанларда Инновация онлайн илмий журналы, 1(6)*, 139-145.
31. Tukhtasin Rajabov Ibodovich. PRACTICAL SITUATION OF TEACHING UZBEK MUSICAL FOLKLORE IN THE CONTINUOUS EDUCATION SYSTEM. *International Journal of Early Childhood Special Education (INT-JECSE)* DOI:10.9756/INTJECSE/V14I6.77 ISSN: 1308-5581 Vol 14, Issue 06 2022. Str.708-716
32. Tukhtasin Ibodovich Rajabov. The Mechanism of Teaching Uzbek Musical Folklore. Volume-1 | Issue-1 Available online @<https://procedia.online/index.php/philosophy>//Procedia of Philosophical and Pedagogical Sciences ISSN 2795-546X Volume – 1 | Issue – 1 | August – 2022 Procedia
33. To'xtasin Rajabov. UZLUKSIZ TA'LIM TIZIMIDA O'ZBEK MUSIQA FOLKLORINI O'RGATISH DOLZARAB PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA. *IJODKOR O'QITUVCHI JURNALI. 5 Sentyabr / 2022 Yil / 21 – son*
34. Rajabov T. I., Oripov N. O. Teaching Folklore Songs Bukhara Children in Continuous Education as a Dolzarb Methodological Problem //EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION. – 2022. – T. 2. – №. 2. – С. 409-412.
35. Rajabov, Tokhtasin Ibodovich, and Mahliyo Feruzovna Rutamova. "The Formation of the Spiritual and Moral Qualities of Students through Folk Songs in Continuing Education is an Urgent Pedagogical Problem." *EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION* 2.2 (2022): 404-408.